Qizig‘i shundaki, tibbiy tavsiyalarga rioya qilmasliklariga qaramay, RA va XDB ga ega bemorlar boshqa tashhisli bemorlarga nisbatan ko‘proq shifokorga murojaat qilishadi va ko‘proq kasalxonaga gospitalizatsiya qilinadilar. Shu bilan birga, depressiya RA bilan kasallangan bemorlarining kundalik faolligiga, o‘z-o‘ziga hizmat ko‘rsatishiga, uyda va ishdagi jismoniy faolligiga jiddiy salbiy ta’sirini ko‘rsatadi.

Tadqiqot maqsadi. Revmatoid artrit bilan og‘rigan bemorlarda tashvish-depressiv buzilishlarning uchrash chastotasini, klinik xususiyatlarini o‘rganish va ularning RA kechishiga ta’sirini aniqlash. Shuningdek, havotirli- depressive buzilishlar darajasi bilan RA klinik ko‘rsatkichlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni baholash.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda Toshkent shahridagi revmatologiya bo‘limida davolangan 217 nafar RA tashxisi ishonchli bo‘lgan bemorlar ishtirok etdi. Bemorlarning yoshi 25–65 yosh oralig‘ida bo‘lib, o‘rtacha yosh 48,3 ± 8,7 yilni tashkil etdi. Ulardan 79% — ayollar, 21% — erkaklar edi. Bemorlar ikki guruhga ajratildi: I-guruh (n=108): tashvish-depressiv buzilish belgilari mavjud bo‘lganlar. II-guruh (n=109): aniq havotirli-depressiv buzilish belgilari bo‘lmaganlar.

Tadqiqot usullari: ijtimoiy-anamnestik so‘rovnoma (Z.R. Ibodullayev, 2018, patent №001031), SF-36 sog‘liq holatini baholash anketasi, HADS (Tashvish va Depressiya shkalasi), PHQ-9 (Depressiyani baholash shkalasi), statistik usullar: tavsifiy statistika, St’yudent t-kriteriy, korrelyatsiya tahlili.

Revmatid artrit bilan kasallangan barcha bemorlarni HADS (kasalxonada xavotir va depressiyani baxolash shkalasi) shkalasi orqali xavotir va depressiya darajasi baxolandi. Undan tashqari SF- 8 shkalasi oqrali umumiy salomatlikka baho berildi, Spilberger-Xanin testi orqali shaxsiy va reaktiv

xavotir darajasi aniqlandi. Guruhlar o'rtasidagi farqlarning statistik ahamiyatini baholash Fisher va χ2 Pirsonning aniq mezoniga muvofiq konyugatsiya jadvallarini tahlil qilish yordamida amalga oshirildi. Ikki guruhdagi miqdoriy miqdorlarni normal taqsimotda taqqoslash uchun Styudentning t-mezonidan, odatdagidan farqli taqsimotda Mann — Uitni parametrik bo'lmagan mezonidan foydalanilgan.

Klinik tekshiruvda qon namunalari orqali biokimyoviy tekshruvlar o'tkazildi. Yuqoridagilar hisobga olingan holda ruhiy holat, sub'ektiv va ob'ektiv anamnestik ma'lumotlar, tibbiy hujjatlar (kasallik tarixi, shu jumladan arxiv, ambulatoriya xaritalari), gematologik va nevrologik holat bo'yicha mutaxassislarning xulosalari tahlil qilindi. Somatik holatni tahlil qilishda klinik bo'limlar xodimlari tomonidan o'tkazilgan klinik tekshiruv natijalaridan foydalanildi.

Natijalar. Ijtimoiy-anamnestik so‘rov natijalariga ko‘ra, tashvishli-depressiv buzilishlar ko‘proq ayollarda (78%), turmush qurmaganlarda (64%) va doimiy ish joyiga ega bo‘lmaganlarda (59%) uchradi.

Tadqiqotimizda ishtrokchilarini HADS shkalasi orqali 2 guruhga (RA o‘tkazgan bemorlar xavotirli-depressiv buzulishlar bor va RA o‘tkazgan bemorlar xavotirli-depressiv buzulishlar yo’q) bo’lingan. Shu ikkala guruhlarni psixo-emotsional holatini tekshirish maqsadida Spilberger-Xanin testi orqali o’rganildi. (1-jadval)

1-jadval

RA kasalligidan aziyat chekkan bemorlarning psixo-emotsional holati

Ko'rsatkichlar	RA o‘tkazgan bemorlar xavotirli-depressiv buzulishlar bor № 108		RA o‘tkazgan bemorlar xavotirli-depressiv buzulishlar yo’q № 109	
	VX	SHX	VX	SHX
Butun guruh (o‘rtacha ko‘rsatkichi)	50,37±0,27*	51,62±0,23*	30,05±0,49	30,41±0,51
Jinsi:				
Erkak	47±0,41*	48,29±0,39*	31,95±0,58	30,61±0,7
Ayol	50,22±0,35*	51,45±0,29*	32,11±0,81	30,8±0,7
Yoshi:				
40 yoshgacha	48,58±0,37*	49,4±0,33*	47,93±0,76	39,09±0,74
40 yoshdan katta	55,71±0,38*	57,37±0,34*	40,08±0,64	51,15±0,68

***Izoh:** * - bilan taqqoslash guruhiga nisbatan (* - P<0,001).*

Jadvaldan ko’rinib turibdiki, revmatoid artrit bilan kasallangan bemorlarning xavotirli-depressiv buzulishlar borlarida butun guruh kesimida Spilberger-Xanin bo’yicha vaziyatli xavotir 50,37±0,27 va shaxsiy xavotir 51,62±0,23 natijasini ko’rsatdi.

HADS shkalasi bo‘yicha: 65% bemorda turli darajadagi tashvish va depressiya aniqlangan. Kuchli tashvish — 42%, kuchli depressiya — 33%, tashvish va depressiyaning qo‘shilishi — 25%.

PHQ-9 shkalasi bo‘yicha: 38% bemorda o‘rtacha va og‘ir darajadagi depressiya aniqlangan.

SF-36 natijalari bo‘yicha: tashvish-depressiv buzilishi bor bemorlarda hayot sifati sezilarli darajada past bo‘lib, jismoniy faoliyat, psixologik farovonlik va ijtimoiy faoliyat ko‘rsatkichlari ancha past chiqdi (p<0,01). Xavotir darajalari shaxsning umumiy ruhiy holatini baholash uchun muhim mezon hisoblanadi. RA o‘tkazgan bemorlar xavotirli-depressiv buzulishlar yo’q bo’lgan bemorlarda butun guruh kesimida Spilberger-Xanin bo’yicha vaziyatli xavotir 30,05±0,49 va shaxsiy xavotir 30,41±0,51 natijasini ko’rsatdi. Bu past darajadagi xavotirni anglatadi, ya’ni shaxsning

xavotir darajasi minimal va u o‘zini odatda xotirjam his qiladi.

Tekshirish uchun olingan 128 ta bemorlarni umumiy salomatligini baholash maqsadida SF-8 testidan foydalandik. (2-jadval)

2-jadval

SF-8 testi yordamida RA bor bemorlarni umumiy salomatligini baholash

SF-8 Domenlari	RA o‘tkazgan bemorlar xavotirli-depressiv buzulishlar yo’q № 108	RA o‘tkazgan bemorlar xavotirli-depressiv buzulishlar yo’q № 109
Umumiy sog‘liq (GH)	38,5 ± 6,2	37,1±3,8
Jismoniy faoliyat (PF)	40,2 ± 7,0	45,3±3,1
Jismoniy og‘riq (BP)	37,8 ± 6,5	39,5±4,6
Kundalik jismoniy cheklovlar (RP)	39,1 ± 6,8	41,7±2,9
Ruhiy salomatlik (MH)	35,6 ± 7,2	45,8±5,4
Ijtimoiy faoliyat (SF)	36,9 ± 6,9	49,4±4,8
Ruhiy cheklovlar (RE)	37,2 ± 7,1	51,8±3,7
Hayotiylik (VT)	36,0 ± 6,7	42,9±6,3
Umumiy PCS (Jismoniy)	39,0 ± 6,5	44,8±3,4
Umumiy MCS (Ruhiy)	36,4 ± 7,0	43,4±1,9

Jadvaldan olingan natijalardan ko’rinib turibdiki, RA o‘tkazgan bemorlar xavotirli-depressiv buzulishlar bor guruhda ruxiy salomatlik, RA o‘tkazgan bemorlar xavotirli-depressiv buzulishlar yo’q guruhga qaraganda mos ravishda 35,6 ± 7,2 va 45,8±5,4 past natijani qayd qilgan. Ruhiy cheklovda(RE) ham 1-guruhda 2-guruhga nisbatan mos ravishda 37,2 ± 7,1 va 51,8±3,7 sezilarli darajada past natija qayd qilingan. Umumiy MCS (Ruhiy) shkalasida ham birinchi guruhda 36,4 ± 7,0 va ikkinchi guruhga 43,4±1,9 qaraganda ancha past ko’rsarkich aniqlangan.

Farmakoterapiya: antidepressantlar (SSRI, SNRI), yengil trankvilizatorlar, anksiolitiklar. 2. Psixoterapiya: kognitiv-behavioral terapiya, oilaviy maslahat, stressni boshqarish treninglari. 3. Kompleks yondashuv: revmatolog va psixiatr hamkorligida olib borilgan davolash bemorlarning umumiy ahvolini yaxshilaydi.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tashvish-depressiv buzilishlar revmatoid artritning kechishini og‘irlashtiradi: og‘riq sezgirligi kuchayadi, davo jarayoniga rioya qilish pasayadi, ijtimoiy va psixologik moslashuv yomonlashadi. Havotirli-depressiv buzilishlar ko‘proq ayollar, yolg‘iz yashovchilar va ishsizlar orasida uchrashi ijtimoiy-psixologik omillarning katta ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatadi. Shu bois RA bilan og‘rigan bemorlarni davolashda faqat revmatolog emas, balki psixiatr va psixoterapevt ham ishtirok etishi kerak.

Revmatoid artritli bemorlarda tashvish-depressiv buzilishlarni erta aniqlash ularning umumiy hayot sifatini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Multidisiplinar yondashuv yordamida (revmatolog, psixiatr, psixoterapevt) bemorlarning ijtimoiy moslashuvi va davoga sodiqligi oshadi.

Revmatoid artrit bilan kasallangan bemorlarni HADS, Spilberger-Xanin, SF-8 shkalalari yordamida xavotirli-depressiv buzulishlariga, psixo-emotsional holatiga va ruhiy-jismoniy salomatligiga baho berdik. Baziz terapiyaga biz afabazol 30 mg 1 tabdan 1 maxal soat 19 da va essitolopram (sevpram 10 mg) soat 9 da 3 oy davomida ichishni tavsiya berdik. Farmakoterapiyaning maqsadi xavotir va depressiya darajasini pasaytirishdan iborat. Bu maqsadda, serotoninning qayta qayta qamrab olinishini selektiv ingibitorlari (SSRI) birinchi tanlov preparatlari hisoblanadi. Ular antidepressiv va anksiolitik ta’sirga ega bo‘lib, yaxshi o‘zlashtiriladi va xavfsizdir. Ko‘plab

tadqiqotlar paroksetin, essitalopram va sertralin kabi SSRI guruhi antidepressantlarining xavotirli nevrotik buzilishlarni davolashda samaradorligini tasdiqlaydi.

Xavotirli depressiv buzilishlarning psixofarmakoterapiyasi murakkab vazifa bo‘lib, ayniqsa, affektiv buzilishlarning uzoq davom etishi va kuchli xavotir simptomlari mavjud bo‘lganda qiyinlashadi. Odatda, muvozanatli ta’sirga ega bo‘lgan antidepressantlar past yoki o‘rtacha dozalarda qo‘llaniladi, masalan, paroksetin, essitalopram va fluvoksamin. (Sergeev I. I., 2013). Antidepressantni tanlash, uning terapevtik dozasi va davolash rejimi simptomlarning xususiyati va xavotir simptomlarining darajasiga bog‘liq.

RA bilan kasallangan xavotir-depressiv buzulishlari bor bo’lgan 90ta bemorga yuqoridagi dori vositalari berilgan. Natijalardan ko’rinib turibdiki, davolashdan keyin, Spilberger-Xanin testi, HADS shkalasi, SF-8 (Umumiy jismoniy salomatlik) v a SF-8 (Umumiy ruhiy salomatlik) shkalalarining barchasida yaqqol yaxshilanish kuzatildi.

Xulosa. Tashvish-depressiv buzilishlar RA bilan og‘rigan bemorlarda keng tarqalgan va ko‘pincha e’tibordan chetda qolmoqda. Havotirli-depressiv buzilishlar RA kechishini og‘irlashtiradi, og‘riqni kuchaytiradi va davoga sodiqlikni kamaytiradi. Havotirli-depressiv buzilishlarni erta aniqlash va davolash (jumladan, antidepressantlar qo‘llash) bemorlarning ruhiy va somatik ahvolini yaxshilaydi. RA davosida multidisiplinar yondashuv (revmatolog + psixiatr) samaradorlikni oshiradi va bemorlarning hayot sifatini yaxshilaydi.

Revmatoid artrit bilan kasallangan bemorlarda xavotirli-depressiv buzulishlarni tashxislash va davolash algoritmidan foydalanish xavotirli-depressiv kasalliklarni erta aniqlash, davolash taktikasini optimal tanlash va terapiya samaradorligini oshirish orqali ijobiy natijalarga erishish imkonini beradi. Bu surunkali xavotirli-depressiv kasalliklarini kamaytirishga, bemorlarning ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga va birlamchi tibbiy-sanitariya yordami muassasalari yukini kamaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu algoritmni klinik amaliyotga tatbiq etish bemorlarning hayot sifatini yaxshilashga va Revmatoid artrit bilan kasallangan bemorlar populyatsiyasida ruxiy buzulishlarni umumiy yukini kamaytirishga yordam beradi.

ADABIYOTLAR

1. Abdraxmanova A. I., Zaripova F. A., Amirov N. B. Rasstroystva trevojno-depressivnogo spektra pri revmaticheskix zabolevaniyax // Vestnik sovremennoy klinicheskoy meditsini. – 2020. – T. 13, № 1. – S. 61–65.

2. Avramenko O. N., Golovach I. Y., Prima I. V. i dr. Rasprostranennost i vajnost diagnostiki trevojno-depressivnix rasstroystv u bolnix revmatoidnim artritom // Medix. Anti-Aging. – 2011. – T. 3(21). – S. 48–52.

3. Amirdjanova V. N., Pogojeva YE. Y. Kachestvo jizni bolnix revmatoidnim artritom, poluchayushix sertulizumaba pegol // Nauchno-prakticheskaya revmatologiya. – 2012. – T. 54, № 5. – S. 80–84.

4. Bakirov B. A., Zaripova G. R., Akbuldina K. R., Bogdanova Y. A., Kudlay D. A. Rossiyskiy i zarubejniy opit otsenki priverjennosti k dolgosrochnoy terapii u patsiyentov s revmatoidnim artritom: obzor literaturi // Terapiya. – 2019. – № 2. – S. 95–103.

5. Vedeniye bolnix revmatoidnim artritom // Jurnal 'Terapiya'. – 2021. – Spets. vip. – S. 28–35.

6. Dostijeniya revmatologii v nachale XXI veka / pod red. V. A. Nasonovoy. – M.: RMJ, 2021.

7. Zinchuk S. M. Sotsialnoye bremya revmatoidnogo artrita // Nauchno-prakticheskaya revmatologiya. – 2021. – T. 59, № 1. – S. 5–10.

8. Klinicheskiye rekomendatsii 'Revmatoidniy artrit'. – M.: Minzdrav RF, 2021.

9. Lisitsina T. A. Trevojno-depressivniye rasstroystva pri revmatoidnom artrite: osobennosti kurirovaniya bolnix // Revmatologiya. – 2014. – Spets. vip. – S. 58–62.

10. Otsenka kachestva jizni, trevojnosti i depressii u patsiyentov s revmatoidnim artritom // Ukrainskiy revmatologicheskiy jurnal. – 2021. – № 1. – S. 45–52.

11. Doe A., et al. Investigating the Association Between Social Support and Quality of Life in Rheumatoid Arthritis Patients // International Journal of Rheumatic Diseases. – 2025. – Vol. 28, No. 4. – P. 456–463.

12. Lee K., et al. Health-related quality of life among patients with rheumatoid arthritis: A cross-sectional study // Quality of Life Research. – 2025. – Vol. 34, No. 7. – P. 789–798.

13. Li Y., et al. Global, regional and national burden of rheumatoid arthritis from 1990 to 2021 // Biomarker Research. – 2025. – Vol. 13. – P. 60.

14. Smith J., et al. Mind Matters in Rheumatoid Arthritis: The Rising Burden of Anxiety and Depression // The Journal of Rheumatology. – 2025. – Vol. 52, No. 3. – P. 203–210.

15. Zhang Z., et al. Global, regional, and national epidemiology of rheumatoid arthritis among people aged 20–54 years from 1990 to 2021 // Scientific Reports. – 2025. – Vol. 15. – P. 10736.

ADABIYOTLAR SHARHI: AYOLLARDAGI NOPSIXOTIK DARAJADAGI AFFEKTIV BUZILISHLARDA TMSNING SAMARADORLIGI

Magzumova Sh.Sh., Yegenberdiyeva D.T.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)

Annotatsiya. Kirish: *Ayollarda uchraydigan nopsixotik darajadagi affektiv buzilishlar, jumladan depressiv va xavotirli buzilishlar, zamonaviy psixiatriyada dolzarb muammo hisoblanadi. Ularning surunkaligi va odatiy terapiyaga past javobi muqobil davolash usullarini izlashga undaydi.* ***Maqsad:*** *Ushbu sharhda affektiv buzilishlarning sabablari, klinik belgilari va zamonaviy davolash usullari, ayniqsa TMSning shaxsga yo‘naltirilgan qo‘llanilishi ko‘rib chiqiladi.* ***Metodlar:*** *2005–2025-yillarda chop etilgan tadqiqotlar PubMed, Scopus, Web of Science va eLibrary bazalaridan tanlab olinib, tizimli tahlil qilindi.* ***Natijalar:*** *Ayollarda gormonal o‘zgarishlar, neyroyallig‘lanish va shaxs xususiyatlari affektiv buzilishlar xavfini oshiradi. TMS, ayniqsa rezistent holatlarda, klinik foyda beradi. TMSning yuqori yoki past chastotali protokollari va shaxs tipiga moslashtirilgan yondashuvlar samaradorlikni oshiradi.* ***Xulosa:*** *Ayollarda affektiv buzilishlarni davolashda TMSni individuallashtirilgan tarzda qo‘llash istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, bu sohada ilmiy izlanishlarni kengaytirish zarur.*

Kalit so‘zlar: *Affektiv buzilishlar, xavotir, depressiv buzilishlar, ayollar, TMS, shaxs tiplari, individuallashtirilgan terapiya.*

Abstract. Introduction: *Non-psychotic affective disorders such as depression and anxiety are highly prevalent among women and often resistant to standard treatment, prompting interest in alternative therapies.* ***Objective:*** *To review modern data on the causes, symptoms, and treatment of these disorders in women, focusing on transcranial magnetic stimulation (TMS) as a personalized therapy.* ***Methods:*** *A narrative review of literature (2005–2025) from PubMed, Scopus, Web of Science, and eLibrary, including studies on TMS and personality-based treatment approaches.* ***Results:*** *Women face higher risks of affective disorders due to hormonal, neurobiological, and psychosocial factors. TMS shows efficacy in treatment-resistant cases, with high-frequency rTMS for depression and low-frequency or iTBS for anxiety. Adjusting TMS to menstrual cycle and psychotype improves outcomes.* ***Conclusion:*** *The individually tailored use of TMS in the treatment of affective disorders in women is a promising direction that requires further scientific investigation.*

Keywords: *Affective disorders, anxiety, depression, women, TMS, psychotype, personalized treatment.*

Аннотация. Введение: *Непсихотические аффективные расстройства — депрессия, тревожность и их сочетания — широко распространены среди женщин и часто устойчивы к стандартной терапии.* ***Цель:*** *Обобщить данные о патогенезе, симптомах и современных подходах к лечению этих расстройств у женщин, с акцентом на транскраниальную магнитную стимуляцию (ТМС) как персонализированный метод.* ***Методы:*** *Нарративный обзор литературы 2005–2025 гг. из баз PubMed, Scopus, Web of Science и eLibrary, включая исследования по ТМС и учёту психотипов.* ***Результаты:*** *Женщины более уязвимы к аффективным расстройствам из-за гормональных, нейровоспалительных и социальных факторов. ТМС эффективна при резистентных формах; индивидуализация параметров по циклу и психотипу усиливает эффект.*

Заключение: *Индивидуально ориентированное применение ТМС при лечении аффективных расстройств у женщин является перспективным направлением, требующим дальнейшего расширения научных исследований.*

Ключевые слова: *Аффективные расстройства, тревожность, депрессия, женщины, ТМС, психотип, персонализированная терапия.*

Kirish. Affektiv buzilishlar – depressiv va xavotirli buzilishlar – zamonaviy psixiatriyada global sog‘liqni saqlash uchun eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib qolmoqda. Epidemiologik tadqiqotlar ushbu kasalliklarning yuqori tarqalishini va ularning nogironlikning yetakchi sababi sifatida jamiyatga katta ijtimoiy-iqtisodiy zarar yetkazishini ko‘rsatmoqda [21;29]. Aholi orasida depressiv va xavotirli buzilishning birgalikda uchrashi (komorbidlik) juda keng tarqalgan bo‘lib, bu holat klinik ko‘rinish va davolash natijalarini yanada murakkablashtiradi [8; 11; 12].

Gender farqlari alohida e’tiborga loyiqdir: ayollarda affektiv buzilishlar erkaklarga qaraganda ancha yuqori uchraydi [33]. Bu biologik (gormonal siljishlar, neyroendokrin disbalans), genetik [39], shuningdek, psixoijtimoiy omillar [50; 15] bilan izohlanadi. Ayniqsa, reproduktiv hayot davrida – hayz sikli, homiladorlik va tug‘ruqdan keyin – ayollar affektiv buzilishlarga sezilarli darajada moyil bo‘lishadi [38; 59; 23]. Bu davrlarda gormonal o‘zgarishlar serotonin va dopamin tizimlariga bevosita ta’sir ko‘rsatib, kayfiyat regulyatsiyasini buzishi mumkin [60].

Affektiv buzilishlarning klinik manzarasi ko‘pincha atipik va yashirin shakllarda kechadi, bunda somatik shikoyatlar (bosh og‘rig‘i, yurak sohasidagi og‘riq, ovqat hazm qilish buzilishlari) psixopatologik simptomlarni niqoblab qo‘yadi va tashxisni murakkablashtiradi [41]. Bundan tashqari, xavotirli-depressiv sindrom 50–60 % hollarda uchrab, suitsidal xavfni sezilarli darajada oshiradi [40; 6]. Kognitiv nuqsonlar – e’tiborning susayishi, xotira va qaror qabul qilishdagi qiyinchiliklar – bemorlarning kundalik hayotiga va ijtimoiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [9; 18].

Farmakoterapiya va psixoterapiya affektiv buzilishlarni davolashda asosiy va samarali yondashuv hisoblanadi, biroq bemorlarning muayyan qismida dori vositalariga rezistentlik yoki ularning nojo‘ya ta’sirlari mavjudligi sababli ushbu usullar ko‘pincha yetarli darajada natija bermaydi va davolash imkoniyatlarini cheklab qo‘yadi [4; 26]. Shu sababli, so‘nggi o‘n yilliklarda neyromodulyatsiya usullari, jumladan transkranial magnit stimulyatsiya (TMS), keng qiziqish uyg‘otmoqda.

TMS – bu bosh miya po‘stlog‘ining maqsadli zonalarini magnit impulslar yordamida stimulyatsiya qiluvchi noinvaziv usul bo‘lib, u neyroplastiklikni qayta tiklash va neyrotransmitter tizimlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan [31; 49]. Randomizatsiyalangan klinik tadqiqotlar TMSning farmakoterapiyaga chidamli depressive buzilishda samarali ekanini ko‘rsatgan [3; 7; 44]. Shuningdek, u xavotirli buzilishlarda ham ijobiy natijalar bermoqda [16; 48; 2]. Meta-tahlillar TMSning samaradorligi turli protokollarda (yuqori chastotali, past chastotali, theta-burst stimulyatsiya) ishonchli natijalar berganini tasdiqlaydi [36; 56; 42].

Affektiv buzilishlarda TMS qo‘llanilishi nafaqat simptomatik yengillikni, balki kognitiv jarayonlarning tiklanishini ham ta’minlashi mumkin [37]. Bundan tashqari, qo‘shimcha dorilar bilan birgalikda qo‘llanganda neyroplastiklikni kuchaytirishi mumkinligi ko‘rsatilgan [53]. Shu bilan birga, usulning xavfsizligi xalqaro tadqiqotlar bilan tasdiqlangan [54; 27].

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar tahlili affektiv buzilishlarning, ayniqsa ayollarda, yuqori tarqalishini, klinik murakkabligini va ko‘p omillilik etiopatogenezini tasdiqlaydi. Farmakoterapiyaga chidamli yoki dori vositalarini qo‘llash cheklangan holatlarda TMS zamonaviy va istiqbolli davolash usuli sifatida ajralib turadi. Mazkur sharh maqolasining maqsadi – affektiv buzilishlarning klinik va etiopatogenetik asoslarini, ularning ayollar

orasidagi xususiyatlarini yoritish hamda TMSning samaradorligi va xavfsizligini adabiyotlar asosida tizimli ravishda tahlil qilishdir.

Metodlar. Ushbu maqola ayollarda depressiv va xavotirli buzilishlarda TMSni qo‘llashga bag‘ishlangan mahalliy va xorijiy tadqiqotlar sharhi hisoblanadi. Tahlilga PubMed, Scopus, Web of Science va eLibrary ma’lumotlar bazalari orqali 2004-yildan 2024-yilgacha bo‘lgan nashrlar kiritilgan. Dalillarga asoslangan tibbiyot mezonlariga mos keladigan original tadqiqotlar, tizimli sharhlar va meta-tahlillar o‘z ichiga olingan. Shaxsiy yondashuvlarga, ayol organizmining o‘ziga xos xususiyatlariga alohida e’tibor qaratilgan.

Natijalar

1. Ayollarda affektiv buzilishlarning epidemiologik jihatlari.

Affektiv buzilishlar, jumladan xavotirli va depressiv buzilishlar, keng tarqalgan bo‘lib, ayollarda hayot sifatining yomonlashuvi va mehnat qobiliyatining yo‘qolishiga olib keluvchi asosiy sabablardan biri hisoblanadi. Epidemiologik tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, ayollarda depressiv va xavotirli buzilishlar erkaklarga nisbatan taxminan 1,5-2 barobar ko‘proq uchraydi [29; 59]. Shu bilan birga, ayollarda umr davomida depressiv buzilish rivojlanish ehtimoli ~20% ga yetsa, erkaklarda bu ko‘rsatkich ancha past [39]. Xavotirli buzilishlar ham ayollar uchun yuqori xavf bilan tavsiflanadi: masalan, generallashgan xavotirli buzilish ayollarning ~5% ida, erkaklarning esa ~3% ida uchraydi, panik buzilishning tarqalishi esa ayollar orasida erkaklarga nisbatan taxminan 2:1 nisbatda ko‘proq kuzatiladi [12; 11]. Umuman olganda, affektiv buzilishlar reproduktiv yoshdagi ayollar orasida ruhiy kasalliklar tarkibida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi [29].Ayol hayotining reproduktiv davrlari bilan affektiv buzilishlar o‘rtasidagi bog‘liqlik muhim xususiyat hisoblanadi. Ma’lumotlarga ko‘ra, ayollarning 10-20 % i tug‘ruqdan keyingi depressiv buzilishni boshdan kechiradi, homiladorlik va tug‘ruqdan keyingi davrlar esa affektiv belgilarning kuchayishiga sabab bo‘lishi mumkin [38]. Ayollar uchun o‘ziga xos psixoijtimoiy xavf omili reproduktiv salomatlikning buzilishi hisoblanadi. Masalan, bepushtlikdan davolanayotgan bemorlar orasida xavotir va depressiv buzilishning yuqori darajada tarqalganligi qayd etilgan [23]. Tug'ruqdagi muammolar, homila tushishi va boshqa reproduktiv stress omillariga duch kelish ayollarda affektiv belgilar rivojlanish xavfini sezilarli darajada oshiradi [13].

Xavotirli va depressiv buzilishlar o‘rtasidagi komorbidlik ayollar populyatsiyasiga ham xos xususiyatdir. Surunkali xavotirli buzilishlarga taxminan **40-50%** hollarda depressiv epizodlar hamroh bo‘lsa, depressiv buzilishga chalingan ayollarning **50-60 % ida** klinik ahamiyatli xavotir kuzatiladi [40; 11]. Kasallikning bu turi "xavotirli depressiv buzilish" deb nomlanib, klinikasi og‘irroq kechadi [40]. Ikki spektr simptomlarining birgalikda namoyon bo‘lishi bemorlarning funksional holatini og‘irlashtiradi va suitsidal xavfni oshiradi [45]. Shunday qilib, epidemiologik jihatdan ayollar ham biologik, ham ijtimoiy-madaniy omillar tufayli nopsixotik darajadagi affektiv buzilishlar rivojlanishi xavfi yuqori bo‘lgan guruhni tashkil etadi. Bu esa ularning oldini olish va davolashda genderga yo‘naltirilgan yondashuvlar zarurligini ta’kidlaydi [59].

2. Ayollarda nopsixotik darajadagi affektiv buzilishlarning etiopatogenetik omillari

Affektiv buzilishlarning etiologiyasi ko‘p omilli bo‘lib, biologik, psixologik va ijtimoiy komponentlarni o‘z ichiga oladi.

2.1. Biologik omillar

Ayollarda affektiv buzilishlarning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy biologik omillar qatoriga genetik moyillik, gormonal tebranishlar, neyrotransmitterlar boshqaruvining o‘ziga xos xususiyatlari va neyroplastiklik kiradi.

Genetik moyillik. Depressiv va xavotirli buzilishlarning rivojlanishida irsiy hissa 30-50% atrofida baholanadi [5]. Oilada birinchi darajali qarindoshlar orasida katta depressiv buzilish yoki xavotirli patologiya mavjud bo‘lsa, bu ayollarda shunga o‘xshash buzilishlar yuzaga kelish xavfini sezilarli darajada oshiradi [59]. Eng ko‘p e’tibor serotonin tas-

huvchi geni (5-HTTLPR) polimorfizmiga qaratilgan bo‘lib, uning qisqa alleli tashuvchiligi stress va depressiv epizodlarga nisbatan yuqori ta’sirchanlik bilan bog‘liq [4].

Neyrokimyoviy mexanizmlar. Klassik monoamin gipotezasiga ko‘ra, serotonin, noradrenalin va dofamin tanqisligi depressiv buzilishlarning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega [4]. Serotoninergik faollikning pasayishi hissiy boshqaruvning buzilishi bilan, dofamin muvozanatining buzilishi esa angedoniya va motivatsiyaning pasayishi bilan bog‘liq [3]. GAMK-ergik va glutamatergik signallarning uzatilishidagi buzilishlar ham xavotirli-depressiv buzilishlar patogenezining muhim bo‘g‘inlari sifatida qaraladi [32].

Gormonal tebranishlarAyollar uchun estrogen va progesteron darajasining keskin o‘zgarishi bilan kechadigan endokrin hodisalar alohida ahamiyatga ega.

Hayz oldi disforik sindromi ayollarning 3–8 % ida uchrab, siklning lyutein fazasida sezilarli xavotirli-depressiv alomatlar bilan namoyon bo‘ladi; tug‘ruqdan keyingi depressiv buzilish esa 10–15 foiz hollarda aniqlanib, jinsiy gormonlar darajasining keskin pasayishi hamda onalikka moslashishdagi stress bilan bog‘liq bo‘ladi; klimakterik davrda kuzatiladigan gipoestrogeniya esa depressiv va xavotirli belgilar paydo bo‘lish xavfini oshiradi [23; 38; 60].

Neyroplastiklik va trofik omillar. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, neyroplastiklikning buzilishi va depressiv buzilishning og‘irroq kechishi miya neyrotrofik omili (BDNF) darajasining pasayishi bilan bog‘liq (Castrén & Hen, 2013, 4]. Farmakoterapiya ham, neyromodulyatsiya usullari ham (xususan, transkranial magnit stimulyatsiyasi) BDNF ekspressiyasini oshirishga va neyroplastiklikni tiklashga yordam berishi aniqlangan [3].

2.2. Psixoijtimoiy omillar

Ayollarda affektiv buzilishlarning rivojlanishida gormonal va biologik mexanizmlar bilan bir qatorda psixoijtimoiy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ta’kidlaydiki, stressli hayotiy voqealar, ijtimoiy zaiflik va shaxsiy xususiyatlarning birgalikdagi ta’siri depressiv va xavotirli buzilishlar rivojlanish xavfini oshiradi [33].

Surunkali stress va ko‘p sonli ijtimoiy rollar. Ayollar erkaklarga qaraganda "qo‘sh yuk" vaziyatiga - ya’ni kasbiy faoliyat, onalik va keksa qarindoshlarga g‘amxo‘rlik qilishni birga olib borishga ko‘proq duch kelishadi. Bunday holat surunkali stress darajasini oshiradi, hissiy charchash sindromining rivojlanishiga olib keladi va xavotir hamda tushkunlik alomatlari uchun zamin yaratadi [30]. Ayollarda stressni idrok etish darajasi yuqoriroq va stressga bardoshlilik mexanizmlari sustroq ekanligi aniqlangan, bu esa moslashuv reaksiyalarining patologik holatga o‘tish ehtimolini oshiradi [21].

Zo‘ravonlik va psixotravmatik hodisalar. Eng muhim psixoijtimoiy omillardan biri zo‘ravonlik tajribasidir. Meta-tahlil ma’lumotlariga ko‘ra, dunyo bo‘ylab ayollarning 30% ga yaqini jinsiy sherik tomonidan jismoniy yoki jinsiy zo‘ravonlikka uchragan va bu tajriba depressiv va xavotirli buzilish va posttravmatik stress buzilishining kuchli prediktori hisoblanadi. [15]. Hatto hissiy va ruhiy zo‘ravonlik holatlari ham barqaror xavotir-depressiv alomatlarning shakllanishiga va o‘zini past baholashga olib kelishi mumkin [17].

Ijtimoiy-iqtisodiy omillar

Ta’lim darajasining pastligi, ishsizlik va kambag‘allik ayollarda depressiv buzilishlarning muhim xavf omillari bo‘lib qolmoqda. Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik surunkali stressni kuchaytiradi, affektiv alomatlarning tarqalishini oshiradi va tibbiy yordamdan foydalanishni cheklaydi [21; 50]. Resurslarning yetishmasligi va ijtimoiy izolyatsiya psixoterapevtik yoki farmakologik yordam so‘rash ehtimolini pasaytiradi, bu esa kasallikning kechishini og‘irlashtiradi va surunkali holatga o‘tish xavfini oshiradi.

2.3. Neyrobiologik mexanizmlar

Affektiv buzilishlarning etiopatogenezi haqidagi zamonaviy qarashlar ularning ko‘p omilli tabiatini ta’kidlaydi, bunda neyrotransmitter tizimlari, stress reaktsiyalari va neyroplastiklik jarayonlarining buzilishi birinchi

o‘ringa chiqadi. Ayollarda gormonal va genetik omillarning o‘zaro ta’siri tufayli zaiflikning o‘ziga xos neyrobiologik mexanizmlari kuzatiladi.

Monoamin disfunksiyasi klassik gipotezaga ko‘ra, depressiv buzilishlarning asosiy mexanizmlaridan biri bo‘lib, serotonin, noradrenalin va dofamin almashinuvining buzilishi bilan izohlanadi. Zamonaviy tadqiqotlar bu disfunksiyalar depressiv buzilish patogenezida muhim o‘rin tutishini tasdiqlaydi, ammo ularni glutamatergik va GAMK-ergik uzatish hamda neyroplastiklikdagi buzilishlar bilan birga kengroq kontekstda ko‘rib chiqadi [4; 32]. Serotonin yetishmovchiligi tushkun kayfiyat, suidsidal fikrlar va uyqu buzilishlari bilan, noradrenalin kamligi asteniya, motivatsiya pasayishi va kognitiv buzilishlar bilan, dofamin disfunksiyasi esa angedoniya va zavqlanish qobiliyatining susayishi bilan bog‘liq bo‘lib, bular depressiv buzilishning asosiy belgilarini tashkil etadi [32; 5]. Ayollarda serotonin tizimining estrogen o‘zgarishlariga yuqori sezgirligi hayz oldi, tug‘ruqdan keyingi va klimakterik davrlarda depressiv buzilishlarning ko‘proq uchrashini tushuntiradi [60; 38].

Gipotalamus-gipofiz-buyrak usti bezi o‘qi. Stress affektiv buzilishlarning asosiy qo‘zg‘atuvchisi bo‘lib, uning neyroendokrin mexanizmi gipotalamus-gipofiz-buyrak usti bezi (GGN) o‘qi orqali amalga oshadi. Depressiv buzilishda kuzatiladigan giperkortizolemiya va glyukokortikoid retseptorlar sezuvchanligining pasayishi GGN-o‘qi disfunksiyasidan dalolat beradi, bu esa ayollarda kuchliroq namoyon bo‘lib, kasallikning surunkalashuviga olib keladi [32; 59]. Stressga javoban ortiqcha faollashgan GGN-o‘qi kortizol teskari boshqarilishini buzib, surunkali distress, gippokamp hajmining kamayishi va kognitiv funksiyalarning yomonlashuviga sabab bo‘ladi, natijada “stress–depressiya” aylanmasi shakllanadi [59; 38].

Neyroplastiklik va neyrotrofik omillar. Zamonaviy psixiatriyada muhim tushunchalardan biri neyroplastiklik nazariyasi bo‘lib, unga ko‘ra depressiv buzilish neyronlarning o‘sishi va yashashini ta’minlovchi miya neyrotrofik omili (BDNF) darajasining pasayishi bilan bog‘liq. BDNF kamayishi affektiv buzilishlarning asosiy patogenetik mexanizmlaridan biri hisoblanib, uning konsentratsiyasi depressiv buzilishga chalingan bemorlarda past bo‘lishi va alomatlar og‘irligi bilan bog‘liqligi aniqlangan. Ayollarda gormonal o‘zgarishlar davrida BDNF darajasi yanada sezilarli pasayib, ularning affektiv buzilishlarga moyilligini kuchaytiradi va jinsiy farqlar bilan izohlanadi [38; 26; 51]. Antidepressantlar hamda neyromodulyatsiya usullari, jumladan transkranial magnit stimulyatsiya, BDNF darajasini oshirib, davolash samaradorligini ta’minlovchi asosiy mexanizmlardan biri sifatida qaraladi [4; 32; 24; 53].

Genetik omillar va polimorfizmlar. Genetik moyillik affektiv buzilishlar rivojlanishida muhim rol o‘ynaydi. Eng ko‘p o‘rganilgan omillardan biri serotonin tashuvchisi polimorfizmi (5-HTTLPR) bo‘lib, u va boshqa genetik variantlar, jumladan serotonin tizimi va BDNF boshqaruvi bilan bog‘liq polimorfizmlar tashuvchilari stressga nisbatan yuqori sezuvchanlik va depressiv buzilish xavfining ortishi bilan tavsiflanadi [5; 32; 38]. Bu ta’sir ayniqsa ayollarda kuchliroq namoyon bo‘lib, genetik va klinik moyillikda jinsiy farqlar mavjudligini ko‘rsatadi [38; 26; 51]. Shuningdek, dofamin tizimi (DRD2, COMT), BDNF va GAMK retseptorlari bilan bog‘liq genlar ham o‘rganilmoqda.

Neyrotasvirlash va tarkibiy o‘zgarishlar. Funksional neyrotasvirlash usullari depressiv va xavotirli buzilishlarda dorsolateral prefrontal po‘stloq (DLPFC) faolligining pasayishi va bodomsimon yadro faolligining ortishini, hissiyotlarni boshqarishga mas’ul prefrontal hamda limbik tuzilmalar o‘rtasidagi aloqaning buzilishini ko‘rsatgan; shuningdek, gippokamp va belbog‘ pushtasi hajmining kamayishi, ayniqsa ayollarda yaqqol namoyon bo‘lib, jinsiy farqlarning ahamiyatini tasdiqlaydi [28; 47; 51]. Ushbu topilmalar transkranial magnit stimulyatsiya uchun nishonlarni belgilashda muhim bo‘lib, uning maqsadi DLPFC va limbik tizim faolligi o‘rtasidagi nomutanosiblikni tuzatishdir.

2.4. Kognitiv va shaxsiy xususiyatlar

Ayollarda affektiv buzilishlarning shakllanishida gormonal, psixosotsial va neyrobiologik omillar bilan bir qatorda kognitiv uslub va shaxsiy tuzilish xususiyatlari ham muhim o‘rin tutadi.

Ruminativ fikrlash uslubi. Ayollar erkaklarga nisbatan ma’lumotni qayta ishlashning ruminativ turiga - salbiy fikrlar va kechinmalarga qayta-qayta qaytishga ko‘proq moyil bo‘ladilar. Ruminatsiya depressiv belgilarning kuchayishiga olib keladi, kasallikning surunkali kechishiga yordam beradi va qaytalanish xavfini oshiradi. Salbiy hodisalarning sabablari va oqibatlari haqida uzoq vaqt o‘ylash moslashuvchan kurashish strategiyalarining shakllanishiga to‘sqinlik qiladi va chorasizlik hissini kuchaytiradi [14; 9; 12].

Yuqori darajadagi xavotirlanish va hissiy ta’sirchanlik. Ayollar, umuman olganda, hissiy ta’sirlanish va stressga sezgirlikning yuqori darajasini namoyon etadilar. Bu generallashgan xavotirga moyillikning oshishi, shuningdek, somatik alomatlarning (yurak urishi, bosh aylanishi, qorin og‘rig‘i kabi) ko‘proq namoyon bo‘lishida ko‘rinadi. Bunday xususiyatlar ayollarda xavotirli va depressiv buzilishlarning yuqori darajadagi birga kechishini tushuntiradi [59; 51; 12].

Shaxslararo munosabatlarga tobelik

Ayollarda ijtimoiy aloqalar va shaxslararo munosabatlarga yo‘nalganlik kuchliroq namoyon bo‘ladi, bu esa affektiv buzilishlarning kechishi va namoyon bo‘lishining o‘ziga xos xususiyatlarida aks etadi. Ularning klinik manzarasida ijtimoiy-hissiy omillar, jumladan bog‘lanish va shaxslararo muammolar hal qiluvchi ahamiyatga ega [38; 59; 13; 45]. Muhim munosabatlarning yo‘qolishi, ajralish yoki oila ichidagi nizolar sharoitida depressiv alomatlarning rivojlanish xavfi sezilarli darajada ortadi. "Gender roli" nazariyasida ta’kidlanishicha, ayollardan kutilayotgan madaniy talablar (boshqalarga g‘amxo‘rlik, bo‘ysunuvchanlik, hissiy ta’sirchanlik) bu rollar voqelikka mos kelmagan taqdirda affektiv buzilishlarning shakllanish ehtimolini oshiradi [33].

Shaxsiy moyilliklar

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, shaxsning ayrim xususiyatlari depressiv va xavotirli buzilishlarning bashoratchisi bo‘lishi mumkin.

Neyrotitsizmning yuqori darajasi depressiv buzilish epizodlarining tez-tez takrorlanishi va davolash samaradorligining pastligi bilan bog‘liq ekani zamonaviy tadqiqotlarda tasdiqlangan [5; 6; 35]. Shuningdek, mukammallikka intilish va o‘ziga past baho berish xavotirli-depressiv reaksiyalarga moyillikni kuchaytiradi. Ayollarda esa siklotimik va distimik kabi affektiv temperamentlar ko‘proq uchrab, takrorlanuvchi affektiv buzilishlar xavfini oshiradi va depressiv buzilishning klinik kechishini belgilaydi [5; 35; 45].

3. Ayollarda nopsixotik darajadagi affektiv buzilishlarning klinik jihatlari

Ayollarda affektiv buzilishlarning klinik manzarasi gender omillari bilan bog‘liq bir qator o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ayollar populyatsiyasidagi xavotirli va depressiv buzilishlar uchun umumiy jihat - bu hissiyotlarning kuchliroq somatizatsiyasi va komorbid nevrotik belgilarning yuqori darajada uchrashidir [18]. Ayollarda affektiv buzilishlar fonida doimiy charchoq, uyqu, ishtaha va jinsiy mayl buzilishlari kabi holatlar ko‘proq kuzatiladi [41]. Bundan tashqari, ayollardagi hissiy buzilishlar ko‘pincha somatik shikoyatlar (bosh og‘rig‘i, yurak sohasidagi og‘riqlar, ovqat hazm qilish muammolari) niqobi ostida yashirin kechadi, bu esa o‘z vaqtida tashxis qo‘yishni qiyinlashtiradi. Gormonal holat va hayz siklining simptomlar ifodalanishiga ta’sir qilishini hisobga olish muhim: masalan, hayzdan oldingi kunlarda davolash fonida simptomlarning umumiy nazorat qilinishiga qaramay, qisqa muddatli xavotir yoki tushkun kayfiyat kuchayishi mumkin [40]. Quyida ayollardagi xavotirli va depressiv buzilishlarning o‘ziga xos klinik jihatlari, shuningdek, ushbu bemorlar guruhidagi kasallik oldi shaxs xususiyatlarining o‘ziga xosliklari ko‘rib chiqiladi.

3.1. Ayollarda xavotirli buzilishlarning klinik jihatlari

Emotsional-kognitiv ko‘rinishlar.Ayollarda xavotir buzilishlari ko‘pincha

kuchli hissiy beqarorlik, ichki taranglik va muammolar ustida haddan tashqari bosh qotirishga moyillik bilan kechadi. Bemorlar noaniq xavf-xatar hissi, bo‘shasha olmaslik va doimo yoqimsiz voqealarni kutish holatidan shikoyat qilishadi [9]. Vasvasaga berilish va hatto arzimas muammolarni ham fojiali tarzda ko‘rish xosdir.

Somatovegetativ ko‘rinishlar. Ayollardagi xavotirli buzilishlar uchun yaqqol vegetativ belgilar: yurak urishining tezlashishi, nafas yetishmayotgandek bo‘lishi, haddan tashqari terlash, bosh aylanishi, qorin sohasidagi og‘riqlar xosdir. Bu alomatlar ko‘pincha kasallikning ruhiy tabiatini niqoblaydi va terapevtlar hamda kardiologlar tomonidan uzoq muddatli tekshiruvlar o‘tkazilishiga sabab bo‘ladi [48].

Uyqu buzilishi.Generallashgan xavotir yoki vahima buzilishlari bo‘lgan ayollar ko‘pincha uxlash qiyinligi, yuzaki uyqu va tez-tez tungi uyg‘onishlarni qayd etadilar. Ba’zi hollarda xavotir aynan kechqurun kuchayib, to‘laqonli dam olishga xalaqit beradi [41].

Kechish xususiyatlari. Ayollardagi xavotirli buzilishlar surunkali kechishga moyil bo‘lib, ko‘pincha tushkunlik alomatlari bilan birga kuzatiladi va hayot sifatini sezilarli darajada pasaytiradi. Xavotir va depressiv buzilishning birgalikda kechishi ("xavotirli depressiv buzilish") ayollarda ko‘proq uchraydi va og‘irroq oqibatlarga olib kelishi mumkin [40].

Ayollar populyatsiyasida erkaklarga qaraganda *g‘ayrioddiy namoyon bo‘lishlar* - masalan, ichki bezovtalik spirtli ichimliklarni suiiste’mol qilish yoki shirinliklarni haddan tashqari iste’mol qilish orqali yashirinadigan niqoblangan xavotirli buzilishlar tez-tez uchraydi [8]. Ayollar ko‘pincha xavotirni "ovqat bilan bostirishga" yoki uni pasaytirishga urinadilar, bu esa majburiy ovqatlanishga yoki zararli odatlarning (chekish, tinchlantiruvchi dorilar qabul qilish) shakllanishiga olib kelishi mumkin.

3.2. Ayollarda depressiv buzilishlarning klinik jihatlari

Hissiy ko‘rinishlar. Asosiy belgi - kayfiyatning doimiy pasayishi, g‘amginlik, quvonish qobiliyatining yo‘qolishi (angedoniya) hisoblanadi. Ayollarda depressiv va xavotirli alomatlarning birgalikda kechishi 50-70% hollarda kuzatiladi, bu ichki taranglik, jahldorlik, yig‘loqilik va ahamiyatsiz stress omillariga yuqori ta’sirchanlik bilan namoyon bo‘ladi [6].

Kunlik tebranishlar. Ayollardagi depressiv buzilishlarning muhim xususiyati kayfiyatning kunlik o‘zgarishlaridir. Odatda kunning birinchi yarmida belgilar eng og‘ir kechadi: qayg‘u, bo‘shliq hissi, sustlik. Kechqurunga kelib esa, aksincha, bemorlar ko‘pincha ahvollarining nisbatan yaxshilanganini qayd etadilar, gapga kirishuvchan va muloqotga ochiq bo‘lib qoladilar. Bu hodisa sutkalik maromlar va neyromediatorlar almashinuvining o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq [38].

Somatik ko‘rinishlar. Ayollardagi depressiv buzilish ko‘pincha somatik shikoyatlar orqali namoyon bo‘ladi: bosh og‘rig‘i, yurak sohasidagi og‘riqlar, ovqat hazm qilishning buzilishi, surunkali charchoq. Ko‘p hollarda aynan shu shikoyatlar tibbiy yordamga murojaat qilishga sabab bo‘ladi [11].

O‘ziga xos shakllar. Hayz oldi disforik buzilish siklning lyutein fazasida yuzaga kelib, kuchli tushkunlik, asabiylashish va jismoniy shikoyatlar bilan kechadi [38]; tug‘ruqdan keyingi depressiv buzilish tug‘ruqdan so‘ng ayollarning 10–15 % ida uchrab, qayg‘u, tashvish va aybdorlik hissi bilan namoyon bo‘ladi [23]; klimakterik depressiv buzilish esa gipoestrogeniya bilan bog‘liq bo‘lib, kayfiyat pasayishi, vegetativ buzilishlar va xavotir belgilarini keltirib chiqaradi [60].

Xulq-atvor xususiyatlari. Ayollarda **30-40 % hollarda depressiv buzilish "faol depressiv buzilish" ko‘rinishida kechadi** (niqoblangan yoki subklinik shakl). Bunda tashqi tomondan faollik va ijtimoiy majburiyatlarni bajarish saqlanib qoladi, ammo ichki jihatdan bemorlar og‘ir hissiy azoblanishni boshdan kechiradilar, o‘zini ayblashga moyil bo‘ladilar hamda ijtimoiy va oilaviy rollarda o‘zlarini layoqatsiz his qiladilar [59].

4. Ayollarda nopsixotik darajadagi affektiv buzilishlarni standart davolash taktikasi

Ayollarda nopsixotik darajadagi affektiv buzilishlarni davolash taktikasi kasallikning biologik, psixologik va ijtimoiy mexanizmlariga kompleks ta'sir ko'rsatishni nazarda tutadigan biopsixoijtimoiy yondashuv tamoyillariga asoslanadi. Zamonaviy xalqaro va milliy klinik tavsiyalarga ko'ra, terapiya nafaqat depressiv va xavotirli buzilishlarni davolashning umumiy standartlarini, balki ayollarning o'ziga xos xususiyatlarini, jumladan reproduktiv sikllar, gormonal o'zgarishlar va ijtimoiy rollarini ham hisobga olishi lozim [59; 12].

4.1. Farmakoterapiya

Antidepressantlar. Farmakoterapiya depressiv va xavotirli buzilishlarni davolashning asosiy usuli bo'lib qolmoqda. Birinchi navbatda quyidagilar tayinlanadi:

SIOZS (sertralin, essitalopram, paroksetin, fluoksetin) - kuchli antidepressiv va anksiolitik ta'sirga ega, yaxshi qabul qilinadi va uzoq muddat qo'llash uchun mos keladi [4; 11].

SIOZSIN (venlafaksin, duloksetin) - ayniqsa depressiv buzilishlar somatik og'riq belgilari bilan birga kelganda samarali hisoblanadi [32].

TSA (amitriptilin, klomipramin) va MAO ingibitorlari hozirgi vaqtda nojo'ya ta'sirlar tufayli cheklangan holda qo'llaniladi, ammo davo choralari ta'sir qilmaydigan holatlarda buyurilishi mumkin.

Anksiolitiklar.

Benzodiazepinlar (diazepam, alprazolam, klonazepam) qisqa muddatli xavotir va vahima xurujlarini bartaraf etish uchun ishlatiladi. Uzoq muddat qo'llash qaramlik va kognitiv buzilishlar xavfi tufayli tavsiya etilmaydi [27].

Buspiron — benzodiazepin bo'lmagan anksiolitik bo'lib, generallashgan xavotirda samarali ta'sir ko'rsatadi va qaramlik keltirib chiqarmaydi. Shu sababli, u surunkali tashvishdan aziyat chekayotgan ayollar uchun afzal dori hisoblanadi.

Yordamchi terapiya

Atipik antipsixotiklar (kvetiapin, olanzapin) kichik dozalarda xavotirli-depressiv holatlarda va antidepressantlar bilan o'tkazilgan monoterapiyaga chidamlilik paydo bo'lganda qo'llaniladi.

Normotimiklar (lamotridjin, valproatlar) siklotimik va distimik buzilishlarda ishlatiladi.

Sedativ antidepressantlar (trazodon, mianserin) uyqu buzilishi yaqqol namoyon bo'lgan depressiv buzilish holatlarida tavsiya etiladi.

Ayollarda davolashning o'ziga xos xususiyatlari.

Homiladorlik. Yengil holatlarda psixoterapiya afzal ko'riladi; og'ir depressiv buzilishda SIOZS (ko'pincha eng xavfsiz sanalgan sertralin) tayinlash mumkin.

Tug'ruqdan keyingi davr. Antidepressantlar laktatsiyani hisobga olgan holda tanlanadi — sertralin va paroksetin nisbatan xavfsiz deb e'tirof etilgan [23].

Klimaks. Antidepressantlarni gormon o'rnini bosuvchi terapiya bilan birga qo'llash davolash samaradorligini oshiradi va kognitiv funksiyalarni yaxshilaydi [60].

4.2. Psixoterapiya

Kognitiv xulq-atvor terapiyasi (KXT). Kognitiv xulq-atvor terapiyasi ayollarda depressiv va xavotirli buzilishlarini psixoterapevtik davolashning eng isbotlangan va keng qo'llaniladigan usuli hisoblanadi. Meta-tahlillar va klinik tavsiyalarga ko'ra, KXT samaradorligi yengil va o'rtacha depressiv holatlarda dori-darmon bilan davolash samaradorligiga teng keladi, xavotirli buzilishlarda esa bu usul birinchi navbatda qo'llaniladigan davolash usuli hisoblanadi. KXT salbiy fikrlarni kamaytirish, falokatli va o'zini ayblovchi fikrlarni to'g'rilash, bemorlarga xavotir va stressni boshqarish usullarini o'rgatishga yordam beradi [20; 12].

KXT, ayniqsa, ayollar uchun samarali, chunki u ayollarga xos bo'lgan kognitiv va hissiy qiyinchiliklarni hal qilishga imkon beradi: ijtimoiy kutilmalarga mos kelmaslik uchun aybdorlik hissi, oilaviy va kasbiy rollarni muvozanatlashtirish qiyinchiliklari, past o'zini

baholash [34]. Bir qator tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollarning KXTga javobi erkaklarga qaraganda yuqoriroq, chunki ular hissiy jihatdan o‘zlarini ochishga va davolanish jarayoniga ko‘proq tayyorlar [59].

Shaxslararo terapiya (ShT). Ijtimoiy rollarning o‘zgarishi bilan bog‘liq depressiv buzilishlarda (tug‘ruqdan keyingi, klimakterik) ayniqsa samarali. ShT muloqotni yaxshilash va shaxslararo nizolarni hal etishga qaratilgan [12].

Dialektik-xulq-atvor terapiyasi (DXT). Depressiv buzilishlar emotsional beqarorlik va suidsidal xatti-harakatlari bilan birgalikda kuzatilganda tavsiya etiladi. U hissiyotlarni boshqarish, o‘zini nazorat qilish va stressga bardoshlilik ko‘nikmalarini rivojlantiradi [10].

Guruhli terapiya va psixologik ma’rifat. Ayollar ko‘pincha terapiyaning guruhli shakllariga yaxshiroq moslashadilar. Bu yerda ular hissiy qo‘llab-quvvatlanish oladilar va yakkalanish hissini kamaytiradilar. Psixologik ma’rifat ularga va oila a’zolariga kasallikning mohiyatini chuqurroq tushunishga yordam beradi, bu esa davolanishga sodiqlikni oshiradi [59].

5. Ayollarda nopsixotik darajadagi affektiv buzilishlarda tms qo‘llanilishi

5.1. Transkranial magnit stimulyatsiya nima?

Transkranial magnit stimulyatsiya (TMS) - bu **noinvaziv neyromodulyatsiya usuli** bo‘lib, yuqori kuchlanishli qisqa muddatli magnit maydon impulslari yordamida miyaga ta’sir ko‘rsatishga asoslangan zamonaviy usuldir. Ushbu impulslar miya po‘stlog‘ida elektr toklarini hosil qiladi, bu esa hissiyotlar, kognitiv jarayonlar va xulq-atvorni boshqarishda ishtirok etuvchi neyron tarmoqlari faolligining o‘zgarishiga olib keladi [1; 49].

Ta’sir mexanizmi. Transkranial magnit stimulyatsiya (TMS)ning ta’sir mexanizmi stimulyator g‘altak hosil qilgan magnit maydonning kalla suyagi orqali erkin o‘tishi va po‘stloq qavatlarida elektr toklarini induksiya qilishi bilan bog‘liq; bu jarayon neyronlarning depolyarizatsiyasi va qo‘zg‘aluvchanlik darajasining o‘zgarishiga olib keladi. Stimulyatsiya parametrlari – chastota va intensivlik – ga qarab, neyron faolligi oshishi (yuqori chastotali stimulyatsiya) yoki kamayishi (past chastotali stimulyatsiya) mumkin. Shu tarzda, TMS bosh miyaning disfunksional tarmoqlarini maqsadli modulyatsiya qilish imkonini beradi, masalan, depressiv buzilishda chap dorsolateral prefrontal po‘stloq faolligini kuchaytirish yoki xavotirli buzilishlarda o‘ng prefrontal po‘stloqning giperaktivligini pasaytirish [31; 54].

Usulning afzalliklari. Transkranial magnit stimulyatsiya (TMS)ning asosiy afzalliklari — uning noinvazivligi va xavfsizligi bo‘lib, muolaja ambulatoriya sharoitida narkoz va jarrohlik aralashuvisiz o‘tkaziladi. Dori vositalaridan farqli ravishda, u tizimli nojo‘ya ta’sirlarga ega emas, ichki a’zolarga zarar yetkazmaydi va gormonal o‘zgarishlarni chaqirmaydi, shu sababli homiladorlik va laktatsiya davrida farmakoterapiya cheklangan ayollarda qo‘llanilishi mumkin [23]. TMS yaxshi o‘zlashtirilish profili bilan ajralib turadi, uning eng ko‘p uchraydigan nojo‘ya ta’siri qisqa muddatda o‘tib ketadigan yengil bosh og‘rig‘i yoki stimulyatsiya joyidagi noqulaylikdir [49]. Shunday qilib, TMS patogenetik asoslangan, klinik samaradorligi yuqori bo‘lgan davolash usuli bo‘lib, farmakologik terapiya va invaziv usullar, jumladan elektrokonvulsiv terapiya oralig‘ida o‘z o‘rniga ega.

5.2. Nopsixotik darajadagi affektiv buzilishlarda ayollarda tms qo‘llash protokollari

Klinik amaliyotda ayollardagi depressiv va xavotirli buzilishlarni davolash uchun transkranial magnit stimulyatsiyasining (TMS) turli qo‘zg‘atish protokollari qo‘llaniladi. Ular chastotasi, intensivligi, ta’sir ko‘rsatish joyi va davolanish kursi davomiyligi bo‘yicha farqlanadi.

Asosiy stimulyatsiya nishonlari. Depressiv buzilishda asosiy nishon chap dorsolateral prefrontal po‘stloq (DLPFC) bo‘lib, uning faolligi pasaygani uchun yuqori chastotali stimulyatsiya (10–20 Gs) qo‘llanadi va bu frontal-limbik tarmoqlar faoliyatini me’yorlashtiradi [44; 1]. Xavotirli buzilishlarda esa ko‘pincha

o‘ng DLPFC nishonga olinadi, chunki u ortiqcha faol bo‘ladi; bunday hollarda patologik qo‘zg‘aluvchanlikni kamaytirish maqsadida past chastotali stimulyatsiya (1 Gs) qo‘llanadi [2; 48].

Stimulyatsiya chastotasi. Yuqori chastotali TMS (10–20 Gs) asosan depressiv buzilishda qo‘llanilib, chap prefrontal po‘stloq faolligini oshiradi; past chastotali TMS (1 Gs) esa o‘ng prefrontal po‘stloqning ortiqcha faolligini kamaytirish orqali xavotir va panik buzilishlarda samarali bo‘ladi. Shuningdek, teta-burst stimulyatsiyasi (iTBS) – miyaning teta ritmini taqlid qiluvchi yangi usul bo‘lib, seans atigi 3–6 daqiqa davom etadi va samaradorligi an’anaviy 10 Gs stimulyatsiyaga tengligi ko‘rsatilgan [7; 56].

Intensivlik va davomiylik. TMSda ta’sir kuchi bemorning holatiga qarab tanlanib, odatda motor chegarasining 100–120 foizini tashkil etadi. Davolash kursi 20–30 seansdan iborat bo‘lib, 4–6 hafta davomida har kuni (haftasiga 5 marta) o‘tkaziladi [44]. Ayrim hollarda asosiy kurs tugagach, qo‘llab-quvvatlovchi davolash ham qo‘llanilib, haftada yoki oyda bir marta o‘tkaziladigan seanslar kasallikning qaytalanish xavfini kamaytiradi [46].

